| <b>Murtozayeva Xusnora Erkin qizi</b>                                                                                                    |     |
| KORXONANING BREND EKOTIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....                                                                                     | 335 |
| <b>Sa'dulloyev Habibullo Ibodullo o'g'li</b>                                                                                             |     |
| AGRAR VA SANOAT TARMOQLARIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ORQALI YANGI ISH O'RINLARINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....                   | 341 |
| <b>Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li</b>                                                                                               |     |



# AGRAR VA SANOAT TARMOQLARIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ORQALI YANGI ISH O'RINLARINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI

**Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li**  
 Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
 "Mehnat iqtisodiyoti" kafedrası tayanch doktoranti  
 Email: [t.bobojonov@tsue.uz](mailto:t.bobojonov@tsue.uz)  
 ORCID: 0009-0005-1195-0778

**Annotatsiya.** Agrar va sanoat tarmoqlarini yashil iqtisodiyotga o'tkazish orqali yangi ish o'rinlarini shakllantirish istiqbollari xalqaro va milliy statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida yashil iqtisodiyot konsepsiyasining nazariy asoslari, xususan, Porter gipotezasi, Bowen va Kuralbayevaning yashil bandlikka oid yondashuvlari hamda Xalqaro mehnat tashkilotining yashil ish o'rinlari bo'yicha global tasnifi o'rganilgan. Tahlil natijalari sanoatda qayta tiklanuvchi energetika va chiqindilarni qayta ishlash, qishloq xo'jaligida esa suv tejovchi texnologiyalar hamda organik dehqonchilik yo'nalishlari barqaror bandlikni ta'minlash va yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, yashil transformatsiya nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratish, balki mavjud ish o'rinlarining bosqichma-bosqich "yashillashuvi" orqali ham mehnat bozori tarkibiga ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslangan. Tadqiqot yakunida agrar va sanoat tarmoqlarida yashil bandlikni kengaytirishga qaratilgan amaliy va makroiqtisodiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** yashil iqtisodiyot, yashil ish o'rinlari, yashil bandlik, mehnat bozori, qayta tiklanuvchi energetika, suv tejovchi texnologiyalar, organik dehqonchilik, barqaror rivojlanish.

**Аннотация.** На основе международных и национальных статистических данных проанализированы перспективы создания новых рабочих мест в процессе перехода аграрного и промышленного секторов к зеленой экономике. В рамках исследования рассмотрены теоретические основы концепции зеленой экономики, в частности гипотеза Портера, подходы Боуэна и Куралбаевой к зеленой занятости, а также глобальная классификация зеленых рабочих мест Международной организации труда. Результаты анализа показывают, что возобновляемая энергетика и переработка отходов в промышленности, а также водосберегающие технологии и органическое земледелие в сельском хозяйстве приобретают важное значение для обеспечения устойчивой занятости и создания новых рабочих мест. Научно обосновано, что зеленая трансформация влияет на структуру рынка труда не только посредством создания новых рабочих мест, но и за счет постепенного «озеленения» существующей занятости. По результатам исследования разработаны практические и макроэкономические рекомендации, направленные на расширение зеленой занятости в аграрном и промышленном секторах.

**Ключевые слова:** зеленая экономика, зеленые рабочие места, зеленая занятость, рынок труда, возобновляемая энергетика, водосберегающие технологии, органическое земледелие, устойчивое развитие.

**Abstract.** The prospects for creating new jobs through the transition of the agricultural and industrial sectors to a green economy are analyzed using international and national statistical data. The study examines the theoretical foundations of the green economy concept, particularly the Porter Hypothesis, Bowen and Kuralbayeva's approaches to green employment, and the International Labour Organization's global classification of green jobs. The findings indicate that renewable energy and waste recycling in industry, as well as water-saving technologies and organic farming in agriculture, are becoming increasingly important for promoting sustainable employment and creating new jobs. The study also demonstrates that the green transition affects the structure of the labor market not only through the creation of new jobs but also through the gradual "greening" of existing employment. Based on the findings, practical and macroeconomic recommendations are developed to promote green employment in the agricultural and industrial sectors.

**Keywords:** green economy, green jobs, green employment, labor market, renewable energy, water-saving technologies, organic farming, sustainable development.



## KIRISH

So'nggi yillarda global iqtisodiyotning yashil transformatsiyasi nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki mehnat bozori tarkibini tubdan o'zgartiruvchi asosiy omillardan biriga aylandi, desak xato bo'lmaydi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi (UNEP) yashil iqtisodiyotni resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xatarlarni qisqartirish va ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiluvchi iqtisodiy model sifatida e'tirof etadi [1]. Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) va Xalqaro qayta tiklanuvchi energiya agentligi (IRENA) ma'lumotlariga ko'ra, jahon miqyosida qayta tiklanuvchi energetika sohasidagi ish bilan bandlik 2020-yildagi 12 milliondan 2025-yilga kelib 16,6–16,8 million kishiga yetgan. Biroq, 2023–2025-yillarda ushbu o'sish sur'ati 2,3 foizni tashkil etgan va yaratilgan ish o'rinlarining qariyb 44 foizi (7,3 million) Xitoy hissasiga to'g'ri kelgan [2]. Mazkur holat yashil texnologiyalar mehnat bozorida barqaror ish o'rinlari drayveriga aylanib borayotganini, shu bilan birga, global o'sishning geografik jihatdan turli sur'atlarda kechayotganini ko'rsatadi.

Iqtisodiyotni yashil modelga o'tkazishdagi bunday xalqaro tendensiyalar va mintaqaviy tafovutlar fonida O'zbekiston Respublikasi uchun ham moslashuvchan milliy strategiyani ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasi"da energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi manbalarni rivojlantirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi [3]. Shu o'rinda makroiqtisodiy ko'rsatkichlardagi tarkibiy siljishlarni ham qayd etish lozim. 2024-yilda yalpi ichki mahsulot (YalM) tarkibida sanoatning ulushi 25,3 foizdan 26,4 foizgacha oshgan bo'lsa, qishloq xo'jaligi ulushi 21,2 foizdan 19,2 foizgacha o'zgargan [4]. Aynan mazkur ikki tayanch tarmoq yashil transformatsiyaning asosiy obyektlari hisoblanib, sanoatda qayta tiklanuvchi energetika va chiqindilarni qayta ishlash, agrosektorda esa suv tejovchi texnologiyalar va organik dehqonchilik orqali yangi yashil ish o'rinlari shakllanmoqda.

Ushbu tarkibiy o'zgarishlar sharoitida mavzuning dolzarbligini O'zbekistondagi demografik jarayonlar yanada oshiradi. BMTning O'zbekiston bo'yicha 2026–2030-yillarga mo'ljallangan Hamkorlik doiraviy dasturi (UNSDCF) prognozlariga ko'ra, mamlakatda mehnatga layoqatli aholi (15–64 yosh) soni 2023-yildagi 23,6 million kishidan 2050-yilga borib 33 milliondan oshishi kutilmoqda [5]. Mehnat bozoriga har yili kirib kelayotgan yuz minglab yosh mutaxassislarning bandligini ta'minlash ehtiyoji yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini barqaror ish o'rinlari yaratish salohiyati nuqtai nazaridan chuqur tadqiq etishning ahamiyatini oshiradi. Mazkur maqolaning maqsadi xalqaro va milliy statistik ma'lumotlarga tayangan holda agrar hamda sanoat tarmoqlarida yashil iqtisodiyot hisobiga ish bilan bandlikni ta'minlash istiqbollari empirik tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsad doirasida quyidagi vazifalar belgilandi: yashil iqtisodiyot va bandlikka oid ilmiy-nazariy qarashlarni tizimli o'rganish, sanoat va qishloq xo'jaligida yaratilayotgan yashil ish o'rinlari dinamikasini mavjud statistika asosida baholash, tahlillar natijasida makroiqtisodiy siyosat uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasining nazariy asoslari dastlab D. Pirs, A. Markandya va E. Barbierning "Blueprint for a Green Economy" (1989) asarida tizimli tahlil qilinib, atrof-muhit va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi uzviylik ilmiy muomalaga kiritilgan [6]. Keyinchalik E. Barbier o'zining "A Global Green New Deal" tadqiqotida inqirozdan keyingi iqtisodiy tiklanishni yashil investitsiyalar bilan bog'lab, qayta tiklanuvchi energetikaga yo'naltirilgan davlat xarajatlarining ish bilan bandlikka ijobiy ta'sirini ochib berdi [7]. Ushbu yondashuvlar, asosan, yirik iqtisodiyotlar tajribasiga asoslangan bo'lib, ularni Markaziy Osiyodagi kabi o'ziga xos agrosanoat tuzilmasiga ega mintaqalar xususiyatlari bilan uyg'unlashtirgan holda o'rganish tadqiqotlarning ilmiy qamrovini yanada kengaytiradi.

Mikroiqtisodiy darajada M. Porter va C. van der Linde tomonidan ilgari surilgan gipoteza qat'iy ekologik me'yorlarning innovatsiyalarni rag'batlantirishi va natijada ish bilan bandlikka ijobiy ta'sir ko'rsatishini nazariy jihatdan asoslaydi [8]. Qat'iy ekologik tartibga solish korxona raqobatbardoshligini oshirishiga oid "kuchli" Porter gipotezasi bo'yicha empirik natijalar turli ilmiy yondashuvlarni namoyon etadi. Bu holat turli tarmoqlarda ekologik xarajatlar va innovatsion unumdorlik o'rtasidagi vaqt lagining farqlanishi hamda qoidalarning qat'iyligini o'lchashdagi uslubiy tafovutlar bilan izohlanadi.

Yashil o'sishning ish bilan bandlikka ta'sirini miqdoriy baholash borasida A. Bowen va K. Kuralbayeva o'z izlanishlarida yashil ish o'rinlarining umumiy ish bilan bandlikdagi ulushi hozircha kichik bo'lsa-da, ularning o'sish sur'ati an'anaviy tarmoqlardan yuqoriligini asoslagan [9]. So'nggi yillarda bu o'lchov uslubiyoti yanada takomillashdi. Xususan, Xalqaro mehnat tashkilotining (ILO) 134 davlatni qamrab olgan hisobotida jahon bo'yicha ish bilan bandlikning 31,7 foizi tarkibida yashil vazifalar mavjudligi aniqlangan [10]. Tadqiqot ish o'rinlarini "to'liq yashil" hamda an'anaviy kasblarga ma'lum ekologik vazifalar qo'shilishi orqali shakllanadigan "qisman yashil" toifalarga ajratadi. Ushbu tasnif, ayniqsa, O'zbekiston qishloq xo'jaligidagi kabi mavjud



kasblarning bosqichma-bosqich yashillashuv mexanizmini tushunishda muhim fundamental asos bo'lib xizmat qiladi.

Buni Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) xalqaro qiyosiy tahlili ham tasdiqlaydi: yashil transformatsiya davrida ko'plab an'anaviy ish o'rinlari saqlanib qolgan holda, ish uslubi va vazifalarining o'zgarishi hisobiga modifikatsiyaga uchraydi [11]. Makroiqtisodiy miqyosda esa A. Okunning YalM o'sishi va ishsizlik o'rtasidagi klassik qonuniyati [12] umumiy iqtisodiy fonni ifodalaydi. Shu bilan birga, yashil texnologiyalar hisobiga yuzaga keladigan tarmoq ichidagi tarkibiy siljishlarni yanada kengroq aniqlash uchun mazkur metodologik vositani tarmoq tahlillari bilan birgalikda qo'llash maqsadga muvofiq.

O'zbekiston misolida olib borilgan tadqiqotlar, xususan, Jahon bankining "Uzbekistan: Agri-Food Job Diagnostic" hisoboti 2030-yilgacha davlat siyosati va investitsiyalar hisobiga agrosanoat majmuida yiliga 0,7–1,3 milliongacha yangi ish o'rne yaratish salohiyatini ko'rsatadi [13]. Mazkur ish o'rinlarining yashil bandlikka transformatsiyalashuvi suv tejovchi texnologiyalar va organik dehqonchilikni joriy etish orqali an'anaviy agrar bandlikning bosqichma-bosqich ekologik malaka talab etadigan ish o'rinlariga aylanish istiqbolini ifodalaydi. Shuningdek, Jahon bankining yana bir hisobotida mamlakat energetika sohasidagi "net-zero" ssenariysi 2035-yilga borib tarmoqdagi bandlikni bazaviy holatga nisbatan 30 foizga oshirishi prognoz qilingan [14].

Mavjud xalqaro va mahalliy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotning mehnat bozoriga ta'siri global miqyosda keng o'rganilgan bo'lib, O'zbekistonga doir izlanishlarni turli tarmoqlar kesimida o'zaro uyg'unlashtirish ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarning ilmiy qamrovini yanada kengaytirish imkonini beradi. Masalan, 2026-yilda e'lon qilingan tadqiqotlarda asosiy e'tibor qayta tiklanuvchi energetikadagi bandlik dinamikasiga qaratilgan bo'lib, ushbu natijalarni qishloq xo'jaligi bilan uzviy tahlil qilish qo'shimcha ilmiy imkoniyatlarni yuzaga keltiradi [15]. Institutsional darajada 2025-yil noyabr oyida O'zbekiston Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda UNDP o'rtasida "Yashil iqtisodiyot bo'yicha harakatlar sherikligi" (PAGE) doirasida hamkorlik boshlangan [16]. Mazkur jarayon sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlaridagi yashil ish o'rinlarini bir vaqtning o'zida qiyosiy va empirik statistik ma'lumotlar asosida baholovchi kompleks tadqiqotlarni rivojlantirish uchun yangi ilmiy imkoniyatlar yaratadi. Aynan mazkur tadqiqot yo'nalishini rivojlantirish ushbu maqolaning bosh tadqiqot predmetini tashkil etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot, asosan, ikkilamchi ma'lumotlar tahlili dizayniga asoslangan bo'lib, izlanish jarayonida bir qator ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Birinchidan, xalqaro tashkilotlar — ILO, Jahon banki, OECD, UNDP, UNEP, IRENA, FAO hamda milliy idoralar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi bazalaridan olingan ikkilamchi statistik ma'lumotlar tizimlashtirildi va tavsifiy statistik tahlildan o'tkazildi. Ikkinchidan, sohadagi milliy me'yoriy-huquqiy va strategik hujjatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son<sup>1</sup> qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli<sup>2</sup> qarori, shuningdek, O'zbekistonning uchinchi Milliy belgilangan hissasi — NDC 3.0 mazmuniga nisbatan hujjatli-mazmuniy tahlil qo'llanildi. Uchinchidan, O'zbekistondagi holat yashil ish bilan bandlik sohasidagi ilg'or xalqaro ko'rsatkichlar — Yevropa Ittifoqi, AQSH, Buyuk Britaniya tajribasi hamda XMTning global 31,7 foizlik indeksi bilan qiyosiy benchmarking usuli orqali solishtirildi.

Barcha xulosa va takliflar ochiq rasmiy va institutsional manbalarda e'lon qilingan haqiqiy statistik ko'rsatkichlarga tayanadi. Bu yondashuv olingan natijalarning ishonchligi, xolisligi va qayta tekshirish imkoniyatini ta'minlaydi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoat tarmog'ida yashil ish o'rinlari, birinchi navbatda, qayta tiklanuvchi energetika va chiqindilarni energiyaga aylantirish yo'nalishlari hisobiga shakllanmoqda. IRENA va XMTning qo'shma hisobotlariga ko'ra, jahon miqyosida qayta tiklanuvchi energetika sohasida band bo'lganlar soni 2020–2025-yillar mobaynida barqaror o'sib borgan (1-jadval).

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son qarori: <https://lex.uz/docs/-4539502>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli qarori: <https://lex.uz/docs/-6303230>

Dunyo bo'yicha qayta tiklanuvchi energetika sohasidagi ish bilan bandlik dinamikasi (2020–2025)<sup>3</sup>

| Yil  | Dunyo bo'yicha qayta tiklanuvchi energetikada band bo'lganlar soni (mln kishi) |
|------|--------------------------------------------------------------------------------|
| 2020 | 12,0                                                                           |
| 2021 | 12,7                                                                           |
| 2022 | 13,7                                                                           |
| 2023 | 16,2                                                                           |
| 2024 | 16,6                                                                           |
| 2025 | 16,6–16,8                                                                      |

Makroiqtisodiy yashil investitsiyalar mehnat bozorida bevosita ijtimoiy-mehnat samarasini bermogda. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasining Qorauzak tumanida "ACWA Power" kompaniyasi ishtirokida barpo etilayotgan, qiymati 263 million AQSh dollariga teng bo'lgan 200 MVt quvvatli shamol elektr stansiyasi [17] va energiya saqlash tizimi bunga yorqin misoldir. Mazkur loyiha yiliga 701 million kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarish orqali 292 ming xonadon ehtiyojini qoplash, 187 million kub metr tabiiy gazni tejash hamda 403 ming tonna zararli chiqindilar hosil bo'lishining oldini olish imkonini beradi [18]. Bunday yirik infratuzilma obyektlari qurilish, montaj, ishga tushirish va uzoq muddatli texnik xizmat ko'rsatish bosqichlarida barqaror ish o'rinlari zanjirini yaratadi. Yana bir muhim yo'nalish chiqindilarni energiyaga aylantirish sanoati bo'lib, 2027-yilga borib mamlakatning to'qqizta hududida kuniga 1500 tonnagacha maishiy chiqindini qayta ishlash quvvatiga ega stansiyalarni ishga tushirish rejalashtirilgan. Ularning har biri o'rtacha 150–200 tagacha doimiy "to'liq yashil" ish o'rnini yaratish imkoniyatiga ega [18].

Sanoat sohasidagi bunday tarkibiy siljishlar rasmiy statistikada ham o'z ifodasini topmoqda: 2024-yilda sanoat tarmog'i YalMning 26,4 foizini tashkil etib, uning tarkibida elektr energiyasi, gaz, bug' va havoni tozalash yo'nalishining ulushi 6,8 foizga yetdi. Ushbu ko'rsatkichlar sanoat majmuida qayta tiklanuvchi manbalar ulushining ortib borayotganini hamda quyosh panellari montajchisi, shamol turbinasi operatori va energiya saqlash tizimlari texnigi kabi texnologik murakkab kasblarga bo'lgan ehtiyojning sezilarli darajada oshayotganini tasdiqlaydi.

Qishloq xo'jaligi tarmog'ida esa yashil transformatsiya, birinchi navbatda, suv tejoyvchi sug'orish texnologiyalari va organik dehqonchilikni joriy etish orqali namoyon bo'lmoqda. Jahon banki tahlillariga ko'ra, agrosektor 2020-yilda ishchi kuchining 27 foizini, ya'ni taxminan 3,6 million kishini ish bilan ta'minlagan va eksport tushumining 25 foizini shakllantirgan [19]. 2024-yilga kelib esa uning YalMdagi ulushi 19,2 foizni tashkil etgan. Tarmoqning bandlikdagi salmog'i yuqoriligicha qolayotganligi sababli, aynan yashil texnologiyalar vositasida mehnat unumdorligini oshirish strategik ahamiyat kasb etadi.

Jahon bankining "Uzbekistan: Agri-Food Job Diagnostic" hisobotiga ko'ra, maqsadli davlat siyosati va investitsiyalar amalga oshirilgan taqdirda, 2030-yilga borib agrosanoat majmuida ish bilan bandlik darajasi 19–32 foizga oshishi va yiliga 0,7–1,3 million yangi ish o'rne yaratilishi mumkin. Bunda bog'dorchilik va sabzavotchilik kabi yuqori qo'shilgan qiymatli sohalar eng katta salohiyatga ega deb baholangan. Ushbu o'rinda muhim metodologik izohni qayd etish lozim: prognoz qilinayotgan ish o'rinlarining barchasi avtomatik ravishda mutlaq "yashil" maqomiga ega bo'lmaydi. Ushbu jarayon yuqorida keltirilgan ILO tasnifidagi "qisman yashil" mexanizmi hamda OECD qayd etgan vazifalar transformatsiyasi qonuniyatlari doirasida kechadi. Ya'ni, tarmoqda suv tejoyvchi tizimlar va organik amaliyotlar kengaygani sari an'anaviy dehqon yoki fermer lavozimi saqlanib qoladi, biroq tomchilatib sug'orish uskunalarini sozlash, tuproq namligi sensorlarini boshqarish yoki ekologik sertifikatlash talablarini bajarish kabi yangi kompetensiyalar bilan boyitiladi. Demak, 0,7–1,3 millionlik ko'rsatkichni "yangi yashil ish o'rinlari" sifatida emas, balki "yashil transformatsiya salohiyatiga ega umumiy ish bilan bandlik o'sishi" sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Mazkur yashillashuv jarayonining amaliy isboti sifatida suv tejoyvchi texnologiyalarning kengayishini ko'rsatish mumkin. Agar 2017-yilgacha mamlakatda bunday texnologiyalar atigi 19 ming gektar yerda qo'llanilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 389 ming gektarga yetdi. Natijada paxta hosildorligi gektariga 10–15 sentnerga oshib, suv resurslari 20–60 foizga, yoqilg'i va mineral o'g'itlar sarfi esa 25–35 foizga tejalgan [20]. 2025-yilga kelib sug'oriladigan yerlarning 60 foizi ushbu texnologiyalar bilan qamrab olindi va 2028-yilgacha bu ko'rsatkichni 80 foizga yoki 3,5 million gektarga yetkazish rejalashtirilgan [21]. Bunday keng ko'lamli texnologik

3 Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan yaratildi.



yangilanish sug'orish tizimlarini montaj qilish, sozlash va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ixtisoslashgan agroservis muhandislariga bo'lgan tizimli talabni shakllantirmoqda.

Xuddi shunday katta salohiyat organik dehqonchilik yo'nalishida ham mavjud. FAO ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 2013-yilda xalqaro sertifikatlangan organik maydonlar deyarli mavjud bo'lmagan. 2016-yilga kelib esa 563 gektar ekin maydoni va 6000 gektar yovvoyi o'simliklar hududi sertifikatlanib, xorijga minglab tonna organik meva va mayiz eksport qilingan [22]. Hozirgi vaqtda organik yer maydoni umumiy qishloq xo'jaligi yer fondining 1 foizidan kamini tashkil etadi. Global organik bozor aylanmasi 135 milliard yevrodan oshgan bir sharoitda [22], ushbu sohani rivojlantirish O'zbekistonda xalqaro sertifikatlash, sifat nazorati hamda yashil logistika kabi xizmat ko'rsatish tarmoqlarida yangi ish o'rinlarini shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

2-jadval

Sanoat va qishloq xo'jaligida yashil ish o'rinlari yaratish mexanizmlarining umumlashirilgan taqqoslama tahlili<sup>4</sup>

| Tarmoq            | Asosiy yashil yo'nalish                           | Asosiy real ko'rsatkich                             | Ish o'ri yaratish mexanizmi                       |
|-------------------|---------------------------------------------------|-----------------------------------------------------|---------------------------------------------------|
| Sanoat            | Quyosh va shamol elektr stansiyalari              | 2025-yil — ~4,7 GVt, 28 570 MVt umumiy quvvat       | Qurilish, montaj, ekspluatatsiya va texnik xizmat |
| Sanoat            | Chiqindilarni energiyaga aylantirish              | Har biri 150–200 ish o'ri; 9 hudud — 2027-yil       | Doimiy ishlab chiqarish va logistika xodimlari    |
| Qishloq xo'jaligi | Suv tejavchi sug'orish texnologiyalari            | 2,6 mln ga — sug'oriladigan yerning 60 foizi        | Agroservis va texnik xizmat mutaxassislari        |
| Qishloq xo'jaligi | Agrosanoat majmui — bog'dorchilik, sabzavotchilik | 0,7–1,3 mln ish o'ri/yil — 2030-yilgacha, potensial | Yetishtirish, qayta ishlash, eksport zanjiri      |

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Empirik tahlillar shuni tasdiqlaydiki, agrar va sanoat tarmoqlarida yashil iqtisodiyotga o'tish O'zbekiston uchun nafaqat ekologik yo'nalish, balki mehnat bozorini kengaytirishning real va o'chanadigan manbalaridan biri hisoblanadi. Qayta tiklanuvchi energetika, chiqindilarni qayta ishlash, suv tejavchi texnologiyalar hamda organik dehqonchilik yo'nalishlarida shakllanayotgan global va milliy tendensiyalar yashil ish bilan bandlikning barqaror o'sishini ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida bir qator uslubiy xulosalarga kelindi. Birinchidan, Porter gipotezasi kabi klassik nazariyalarni milliy iqtisodiyot sharoitlariga moslashtirgan holda qo'llash ularning amaliy samaradorligini oshiradi. Ikkinchidan, Okun qonuniyati kabi agregatlashgan modellarni tarmoq ichidagi yashil tarkibiy siljishlarni aniqlashda tarmoq tahlillari bilan uyg'un holda qo'llash maqsadga muvofiq. Uchinchidan, agrosanoatda yaratiladigan yuz minglab yangi ish o'rinlarini "yashil" bandlik sifatida baholashda ularning bevosita ekologik vazifalar va kompetensiyalar bilan bog'liqligini hisobga olish zarur. Ular XMTning "qisman yashil" mexanizmi asosida mavjud kasb vazifalarining modifikatsiyalanishi natijasida ekologik mazmun kasb etadi. Bu esa yashil ish o'rinlarini bevosita kasb vazifalari darajasida baholovchi milliy metodologiyani ishlab chiqishning dolzarbligini oshiradi.

Yuqoridagi xulosalar asosida mehnat bozorini transformatsiya qilish bo'yicha quyidagi amaliy va makroiqtisodiy tavsiyalar ilgari suriladi:

- **Monitoring tizimini joriy etish:** sanoat va energetika sohasida qayta tiklanuvchi energiya — quyosh va shamol — loyihalarini amalga oshirishda jalb etilayotgan mahalliy ishchi kuchi ulushini alohida kuzatib boruvchi raqamli monitoring tizimini yaratish.

- **"Yashil" kasb-hunar ta'limini kengaytirish:** qayta tiklanuvchi energiya va chiqindilarni qayta ishlash obyektlarini ekspluatatsiya qilish hamda texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha texnikum va kollejlarda maqsadli mutaxassisliklarni, masalan, agroservis muhandislari va quyosh panellari texniklarini tayyorlash yo'nalishlarini joriy etish.

- **Agroservis kooperativlarini qo'llab-quvvatlash:** qishloq xo'jaligida suv tejavchi texnologiyalarni o'rnatish va ta'mirlashga ixtisoslashgan agroservis kooperativlarini rivojlantirish uchun subsidiyalash va imtiyozli kreditlash mexanizmlarini kengaytirish.

- **Organik infratuzilmani rag'batlantirish:** ekologik sertifikatlash infratuzilmasini rivojlantirish orqali yuqori qo'shilgan qiymatli organik mahsulotlar eksportini va tegishli logistika zanjiridagi bandlikni oshirish.

4 Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan yaratildi.



• **Milliy mehnat statistikasini takomillashtirish:** yashil ish o'rinlarini milliy statistikada XMTning "to'liq yashil" va "qisman yashil" tasnifiga muvofiq hisobga olishni yo'lga qo'yish. Buning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi o'rtasida uslubiy integratsiyani ta'minlash.

• **Davlat-xususiy sheriklikni jadallashtirish:** yashil investitsiya loyihalarini amalga oshirishda xalqaro moliya institutlari — Jahon banki, OTB va UNDP resurslaridan mehnat bozorini rivojlantirish hamda yashil malaka oshirish dasturlarini moliyalashtirish maqsadida samarali foydalanish.

Ushbu tavsiyalarning izchil amalga oshirilishi O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini nafaqat ekologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham barqaror va inklyuziv rivojlanish omiliga aylantirish imkonini beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. UNEP. *Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication*. — Nairobi: United Nations Environment Programme, 2011.
2. IRENA; ILO. *Renewable Energy and Jobs: Annual Review 2025*. — Abu Dhabi: International Renewable Energy Agency; Geneva: International Labour Organization, 2026.
3. United Nations. *United Nations Sustainable Development Cooperation Framework for Uzbekistan 2026–2030: Results Framework*. — New York: United Nations, 2025.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son qarori: <https://lex.uz/docs/-4539502>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari. *O'zbekiston YalMi 2024-yilda 1,45 kvadrillion so'mga yetdi. U nimalardan iborat? // Gazeta.uz*. — 2025-yil 7-fevral.
6. Pearce D., Markandya A., Barbier E. B. *Blueprint for a Green Economy*. — London: Earthscan, 1989.
7. Barbier E. B. *A Global Green New Deal: Rethinking the Economic Recovery*. — Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
8. Porter M. E., van der Linde C. *Toward a New Conception of the Environment-Competitiveness Relationship // Journal of Economic Perspectives*. — 1995. — Vol. 9, No. 4. — P. 97–118.
9. Bowen A., Kuralbayeva K. *Looking for Green Jobs: The Impact of Green Growth on Employment*. — London: Grantham Research Institute on Climate Change and the Environment, London School of Economics and Political Science, 2015. — Policy Brief.
10. Delaporte I., Escudero V., Adamczyk W. *Assessing the Size of the Green Economy: Global Evidence from Harmonized Labour Force Surveys*. — Geneva: International Labour Organization, 2025. — ILO Research Brief.
11. OECD. *Employment and Skills Policies for the Green Transition: Review of International Good Practices*. — Paris: OECD Publishing, 2025.
12. Okun A. M. *Potential GNP: Its Measurement and Significance // Proceedings of the Business and Economics Statistics Section*. — American Statistical Association, 1962. — P. 98–104.
13. World Bank. *Uzbekistan: Agri-Food Job Diagnostic*. — Washington, D.C.: World Bank, 2020.
14. World Bank. *Country Climate and Development Report: Uzbekistan*. — Washington, D.C.: World Bank Group, 2023.
15. Abdurakhmanov K. Kh., Zokirova N. K., Ochilov A. O., Khudoyorov A. A. *Green Economy as a Factor Influencing the Ensurancement of Sustainable Development of the Labor Market and Jobs in Uzbekistan // International Journal of Artificial Intelligence*. — 2026. — Vol. 6, No. 01. — P. 592–598.
16. UNDP Uzbekistan. Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan and UNDP Uzbekistan Sign Statement of Intent to Advance Green Economy under PAGE Initiative // *Press Release*. — 2025-yil 27-noyabr.
17. Enerdata. *ACWA and Sumitomo Partner to Develop 2.5 GW of Renewables in Uzbekistan // Daily Energy News*. — 2024.
18. Kursiv Media. *Inside Uzbekistan's Green Energy Shift: The Defining Achievements of 2025*. — 2025.
19. World Bank. *World Bank to Provide Further Support to Modernization of Uzbekistan's Agriculture Sector*. — Washington, D.C.: World Bank, 2020. — Press Release No. 2020/ECA/66.
20. CABAR.asia. *Uzbekistan Seeks to Introduce New Technologies for Irrigation of Agricultural Lands*. — 2024.
21. Tashkent Water Week. *Uzbekistan Intends to Save up to 3.5 Billion Cubic Meters of Water Annually Due to Drip Irrigation*. — 2025.
22. FAO. *Organic Agriculture in Uzbekistan: Status, Practices and Prospects*. — Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2018.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 9/2**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---